

QO`QON XONI OLIMXON

Muhammadiyev Bilol Ismoil o`g`li

Namangan davlat universiteti.

Ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yonalishi,

2-bosqich talabasi

E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com

Tel: +998957707796

Anotation: *this article Details The Life of the famous Khan of the Kokand Khanate Olimkhan, say's actions towards the unification of the country, military political reforms, the role and results of these reforms in the history of the country.*

Anostatsiya: *Ushbu maqolada Qo`qon xonligini mashhur xoni Olimxonning hayoti, mamlakatni birlashtirish yo`lidagi say harakatlari, harbiy siyosiy islohotlari, bu islohotlarni mamlakat tarixida tutgan o`rni va natijalari haqida ma`lumot beriladi.*

Keywords: *Olimkhan, Umarxan, O`ratepa, Yunuskhodja, Tashkent, Khankhodja, Qambar Mirzo.*

**Kalit so`zlar:** *Olimxon, Umarxon, O`ratepa, Yunusxo`ja, Toshkent, Xonxo`ja, Qambar mirzo.*

Qo`qon xonligi taxtiga Norbo`tabiy o`limidan keyin, bir-nechta guruhlar o`zlari qo`llagan shahzodalarni taxtga ko`tarmoqchi bo`lishgani hammaga ayon. Shu guruhlar ichida Olimxonni qo`llaganlar ga`laba qozondi. Olimxon Qo`qon xonligini XIX asr boshida boshqardi. Olimxon davrida mamlakat yirik davlatga aylandi, sarhadlari kengayib, aholi soni ham oshib bordi. Olimxon o`ziga "xon" unvonini oldi, harbiy islohot o`tkazdi, agrar sohada ham islohotlar o`tkazib keng ommani mehnatga jalb qildi. Diniy ulamolarni bazilarini imtihon qilib ularni uquvsizligini kashf etgandan so`ng unga qarshi guruhlar shakllanib, oxir oqibat suiqasd natijasida 1810-yil o`ldirildi.

Norbo`tabiy vafot etgach, saidlar, ulamolar va fuqaro hammasi birlashib, Olimxonning johondorlik taxtiga o`tqazdilar. Muhammad Hakimxon To`raning otasiga o`sha mahallarda Isfara nomi bilan mashhur shaharga hokim etib tayinladi. Bu mahalda shaharda Norbo`tabiyini amirlaridan Boybuta bahodir qalmoq bo`lib bu xabarni eshitib Hakimxonto`raning otasiga qarshilik ko`rsatadi. Olimxon Boybutaga qarshi qo`shin tortdi.

Bir kecha Kunduz davomida, to`p va miltqlarardan qal`aga o`qlar yomg`iri bo`ldi. Shu otishmalar paytida Abdulvali nomli to`fandozni to`fanidan otilgan o`q Boybutaga tegdi va harakatdan qoldi. Qal`a himoyachilari boshliqsiz qolgach hamma o`z bilganicha ish ko`rdi. Olimxon qo`shini bir hamladayoq shahar ichkarisiga kirib Boybutani va ikki o`g`lini tirik asirga tushirishdi va Olimxon buyrug`u bilan qatl etildi.

O`sha mahallarda Qo`qon xonligida xonlikga ko`tarilgan xonlar o`z xonadoni azolarini qatl etishi va yo`q qilishi oddiy bir hol bo`lgan. Jumladan Olimxon ham amakisi Hojibiyni

va Bekbo'tabiyni shahidlik darajasiga yetkazdi. Hojibekni ikki o'g'li Ulug'bek va Sherali kabilarni qirg'iz tomon surgun qiladi. Olimxon taxtga davo qiluvchilardan qutulgach ikkita sardorni qo'shini bilan Xo'jandaga Xonxo'ja huzuriga yubordi. Qo'qonliklar Xonxo'janing amiri lashkar deb e'lon qilib qo'shin bilan Toshkent tomonga yurish qilishini aytishti. Xonxo'ja qo'shindi bir joyga to'plab Toshkent tomon yurish boshladi. Toshkent hokimi Yunusxo'ja bu yurush haqida eshitgach katta qo'shinini Xonxo'ja yo'lga to'siq bo'lishi uchun yubordi va izidan o'zi ham otlandi. Qorasuv mavziyega ikkita qo'shin yetib kelgach o'rtada jang bo'lib o'tdi. Jangda Yunusxo'ja qo'shini g'alaba qozondi. Qo'qonlik askarlarni yarmi o'ldi yarmi asirga tushdi jumladan Xonxo'ja ham asirga tushdi. Keyinchalik o'ldirildi.

Olimxoni bu ishi bilan Xonxo'jadan qutulganini anglagan Chust hokimi Buzrukxo'ja Olimxonga qarshi chiqdi. Olimxon yuborgan qo'shini yengan Buzrukxo'jaga qarshi endi Olimxonni o'zi yurish qildi va g'alaba qozondi. Buzrukxo'ja Ko'histon tomonlarga qochib Qirg'izlar orasiga bordi. U yerdan Yunusxo'jadan yordam so'rab yana Chustga qaytib keldi. Ikkinchi bor Olimxon qo'shini bilan keldi Chustga. Buzrukxo'jni axoli ushlab Olimxonga topshirdi. Olimxon uning o'ldirishga buyruq berdi.[2. - B 270-280].

1806-yilning oxiri 1807-yil boshida Olimxon Xo'jand shahrini ishg'ol etgan. Shu paytda Buxoro amiri Haydar O'ratepani egallaydi. Bu xabarni eshitgan Olimxon O'ratepaga yurish boshladi. 1806-yil 4-may kuni qo'qonliklar O'ratepani egalaydilar. Bu yerdagi amir Haydar tayinlagan lavozimdagilarni barchasi qatil ettiradi. Amir Haydar katta qo'shin bilan O'ratepani qamalga oldi. Olimxon O'ratepa tomon qo'shin tortdi. Shu yurish paytida Jizzaxni ham qamal qildi. Jizzax qamali paytida bosh vazir Rajab devonbegi va Olimxon o'rtsida munosabat buzulishi natijasida Rajab devonbegi Buxoroga qochib ketdi.

Olimxon uzul-kesil qo'lga kiritish uchun hal qiluvchi yurishga otlandi. Qamal boshlangach shahar hokimi Mahmudxon bardosh bera olmasdan, sulh so'radi va ikki o'rtada sulh tuzuldi. Oradan vaqt o'tib Mahmudxon qo'lga olindi. Olimxon O'ratepa uchun jami o'n ikki marotaba yurish qilgan. So'ngi yurishida o'n sakkiz kunlik qamaldan so'ng egalladi.

Olimxon Toshkentni egalash uchun 1806-yilda ukasi Umarxonni qo'shin bilan yubordi. O'sha paytlarda Toshkentga vafot etgan Yunusxo'ja o'rniga Homid xo'ja o'tirar edi. Dastlab o'z tobeligini bildirgan Homidxo'ja so'zidan qaytgach ikki o'rtada urush bo'ldi. Umarxon g'alaba qozonsada Toshkentni egallay olmadi. Umarxon Niyozbek qal'asini qo'lga kiritgach Toshkent sulh so'radi. Umarxon Xomidxo'jani kelib avf so'ragandan keyin Toshkentga kirdi. Umarxon Qo'qonga katta o'ljalar bilan qaytdi. Toshkent hokimi Xomidxo'ja Olimxonga bo'ysinmay mustaqil siyosat yurg'izayotganidan xabar topgan Olimxon o'zi katta qo'shin bilan Toshkentga yurish uyushtirdi. 11 kunlik qamaldan so'ng shahar taslim bo'ldi. Xomidxo'ja Buxoroga qochib ketdi. Olimxon Toshkentga hokim etib Said Alibekni tayinladi. Asir tushganlarni yarmini qatil ettirib yarmini Qo'qonga olib ketdi. Shunday qilib 1806 -yilda Toshkent Qo'qonga bo'sundirildi. [3.-20B]

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

XIX asr boshlariga kelib O`rta Osiyo hukumdorlari o`z hokimyatlarini qonuniylashtirish yo`lini tutdi. Mang`itlardan farqli Minglar o`zlarini Olimxondan boshlab “xon” deb atay boshladi. Olimxon 1805- yildan “xon” unvonida boshqara boshladi. Ungacha Qo`qon xonlari “biy” va “bek” unvonlari bilan boshqargan edilar. Olimxon qisqa mudata davlatni boshqargan bo`lsada Qo`qon xonligi hududini ikki barobar kengaytirdi.[1.42-43 - B]

1809-yil Toshkentdan qishni o`rtalarida Sayrm va Chimkentga, bu yerlarga chekingan toshkentliklarga qarshi qo`shin yubordi. Ob-havoning qiyinchiliklari, qishning sovuq kelgani hamda Olimxonning qaxrli zulmidan to`ygan qo`shin boshliqlari va xon dushmanlari uning ukasi Umarxonni Olimxonga qarshi qayradilar. Umarxon xiyonatchilik qutqusiga uchub, eski niyatlarini amalga oshirish uchun ularga qarshilik qilmadi. Umarxon fitnachilar boshlig`i bilan qo`shinini olib Qo`qonga qaytib xonlik taxtiga o`tirdi. Olimxon Toshkentga qolgan yaqinlari bilan Qo`qonga qaytayotganida Umarxon va Toshkent zodogonlaridan topshiriq olgan amaldor yasovullar va ayg`oqchi -qorovullar taqibi natijasida Oltiqush (Dang`ara atrofidagi qishloq) degan mavzeda qurshovda qolgan va Qambar mirzo ismli amaldor tomonidan otilga o`qdan vafot etdi.[4.-8B]

Olimxon mamalakat harbiy holatini yaxshilash maqsadida harbiy isloht o`tkazdi. U tuzgan muntazam armiya oldingidek Qorategin tojiklaridangina iborat bo`lmay, tog`li tojiklar va O`rta Osiyoning boshqa millatlaridan iborat bo`lgan. Olimxon 1805-yilda o`q otar qurolar bilan qurollangan 10 ming kishilik qo`shin tashkil qildi. Keyinchalik bu qo`shin xonlik armiyasining zarbdor kuchiga aylandi.

[1.-B 61].

Olimxon Toshkent va Sirdaryo bo`yi hududlarni qo`lga kiritgandan so`ng bevosita Rossiya bilan dastlabki aloqalar yo`lga qo`yildi.

Xulosa qilib aytganda Olimxon davrida Qo`qon davlati rasman xonlikka aylandi. Muntazam armiya tuzub davlat hududini kengaytirdi siyosiy jihatdan anchagina birlashtirdi. Olimxon bir qancha me`morchilik obidalarini barpo etdi. Jumladan Ming oyim madrasasi, bu madrasada ko`plab yoshlar bilim oldi. Olimxon davrida Qo`qon xonligi davlat sifatida qo`shni davlatlar bilan ham iqtisodiy, ham siyosiy, harbiy jihatdan bimalol belasha oladigan darajaga yetdi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Б.Я. Турсунов. Кукон хонлигида харбий иш ва кушин холати бошқаруви аналари: Тошкент -2006-164 б.
- 2.Муҳаммадхакимхон тўра Мунтахаб ат-таворих: Тошкент- Янги аср авлоди, 2010. 716-б.
- 3.R.X. Akbarov. Qo`qon xonligi tarixi: Farg`ona- 2015.145b.
- 4.Ш. Вохидов. Кукон хонлиги тарихи(хонлик тарихи манбаларда). 2014 й. 491б.